

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

HAYDAROVA UMIDAXON XOJIAKBAR QIZI

TURLI TILLAR MUMTOZ ADABIYOTIDA SUV ARXISEMALI
BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI
(o‘zbek, ingliz va yapon tillari misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Haydarova Umidaxon Hojiakbar qizi

Turli tillar mumtoz adabiyotida suv arxisemali birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari (o‘zbek, ingliz va yapon tillari misolida).....3

Haydarova Umidakhan Khojiakbar qizi

The Linguocultural characteristics of water archiseme units in classical literature of various languages (based on examples from Uzbek, English, and Japanese languages).....25

Хайдарова Умидахон Хожиакбаровна

Лингвокультурные особенности единиц архисемы вода в классической литературе различных языков (на примерах узбекского, английского и японского языков).....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....49

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

HAYDAROVA UMIDAXON XOJIAKBAR QIZI

TURLI TILLAR MUMTOZ ADABIYOTIDA SUV ARXISEMALI
BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI
(o‘zbek, ingliz va yapon tillari misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4223 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-fa'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Omonov Qudratulla Sharipovich,
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Ganiyeva Dildora Azizovna,
filologiya fanlari doktori, professor

Abduhamidova Dilafuz Abduxabirovna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «26» yun soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Farg'ona shahar, Burhoniddin Marg'inoniy ko'chasi, 105. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: fardu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (538 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona, Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel.: (99873) 244-46-02.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «12» yun kuni tarqatildi.

(2025-yil «12» yun dagi 37 raqamli reyestr bayonnomasi).



G.Z.Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

M.T.Abdupattoyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

A.G.Sabirdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilda madaniyatning voqelanishi va madaniyatning tilga ta'siri masalasini o'rganish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Tilga nafaqat muloqot va dunyoni bilish vositasi, balki millat madaniyatining uzviy qismi sifatida e'tibor berila boshlandi. Natijada til va madaniyatning o'zaro aloqasi, inson shaxsiyati, madaniy qadriyatlarining tilda aks etishi masalasini tadqiq etuvchi – lingvomadaniyatshunoslik fani yuzaga keldi. Uning asosiy vazifalaridan biri har bir xalqning dunyo lisoniy manzarasi muayyan millatning madaniyati asosida yuzaga kelganligini ko'rsatib berishdan iborat. Shu nuqtai nazardan turli tillarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslik uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida tildagi milliy-madaniy belgilar orqali insonda ijtimoiy, madaniy, diniy omillar ta'sirida shakllangan tushunchalar, tasavvur va e'tiqodlar o'rtasidagi tafovutlarni o'rganish lingvomadaniy aspektidagi tadqiqotlarning markaziy muammolaridan biri sanaladi. Shuningdek, lingvomadaniyatshunoslikdagi muhim masalalardan yana biri sifatida suv bilan bog'liq birliklarni chog'ishtirma aspektlarda tadqiq etilishi ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mumtoz matnlarda suv bilan bog'liq tushunchalar o'tmish ajdodlarimizning o'ziga xos ijtimoiy, madaniy, falsafiy, diniy dunyoqarashini hamda olam lisoniy manzarasini o'rganishda nazariy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishida olib borilayotgan tadqiqotlarda tilning madaniyat bilan o'zaro ta'siri, ularning birliklari va konsept, kognitiv metafora, stereotip, tabu, sema kabi tushunchalarga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishda qiyosiy-chog'ishtirma usuldagi ilmiy izlanishlarning ko'payotgani yurtimizda xorijiy tillarni o'rganish va tadqiq etish borasida ham muayyan natijalar qo'lga kiritilayotganligini ko'rsatadi. “Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”, – deya ta'kidlanadi¹. Shu jihatdan xorijiy tilni o'zlashtirish orqali xalqning madaniyati, qadriyatlari, tasavvurlarini ham bilish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, dunyo tillari lug'at qatlamidagi muhim birlik bo'lgan *suv* arxisemali leksemalarni lingvomadaniy aspektida o'rganish zamonaviy tilshunoslik va madaniyatshunoslik uchun ham dolzarb sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi “Jahon adabiyotining

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektordagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/4327>

eng sara namunalari tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 376-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot natijalari ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusiga doir ilmiy nazariy fikrlar xorijiy lingvistlar A.Gumboldt, V.Teliya, M.Golovinskaya, Y.Hitoko, S.Yamamoto, Y.Zintsova, T.Badmayeva, V.Shaklin, V.Maslova, O.Kornilov² hamda o‘zbek tilshunoslari M.Mirtojiyev, Sh.Iskandarova, Sh.Safarov³ larning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Olamning lisoniy manzarasini o‘rganish va uni lingvomadaniy aspektlarda ko‘rib chiqish F.Fatkullina, A.Suleymanova, D.Xayrullina, T.Afisi, L.Brian, E.Sapir, E.Nida, S.Naridati⁴ ning ishlarida atroflicha yoritilgan bo‘lib, jahon va rus tilshunosligida lisoniy birliklarning lingvomadaniy xususiyatlariga doir muhim ilmiy ishlar amalga oshirilgan va e‘tiborga molik natijalarga erishilgan.

Lingvomadaniyatshunoslikning birligi sifatida o‘rganilgan *suv* arxisemali birliklar va ularning xususiyatlariga doir tadqiqotlar ham mazkur sohada muhim o‘rin egallaydi. Xususan, suvning biologik tarkibi va kristallari bilan bog‘liq tabiatidan kelib chiqib, suvda xotira va hissiyot mavjudligi E.Masaru tomonidan ilmiy asosda yoritilgan. Vyetnam va ingliz she‘riyatida suvga doir konseptual

² Гумбольдт В. О различии строения языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984; Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996; Головановская М. К. Ментальность в зеркале языка. Некоторые базовые концепты в представлении французов и русских. – М.: Языки славянской культуры, 2009; 山田仁子. 水にまつわる語を用いた比喻について // Tokushima university Institutional Repository, 1998; 山本省. ジオノ文学における水の役割 // シンシュ大学, 2012; Зинцова Ю.Н. Лексико-семантическое поле “жидкость” в современном немецком языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2009; Бадмаева Т.И. Концепт “вода” в английской лингвокультуре: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2006; Шаклин В.М. Лингвокультурология: традиции и инновации. Монография. – М.: Флинта, 2012; Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Академия, 2001; Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов: учеб. пособие. 3-е изд., испр. – М.: КДУ, 2011.

³ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010; Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 1998; Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013.

⁴ Фаткуллина Ф.Г., Сулейманова А.К. Языковая картина мира как способ концептуализации действительности // Вестник БашГУ, 2011; Хайруллина Д.Д. Бинарные концепты “огонь” и “вода” как фрагмент языковой картины мира (на материале английского и татарского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2009; Afisi T.O. The concept of semiotics in Charles Sanders Peirce’s pragmatism. – Nigeria: Lagos state university, 2020; Brian L. Barthes Roland. – America: Texas Tech university, 2016; Sepir E. Preliminary report on the language and mythology of the upper Chinook. – America: American anthropologist, 1907; Nida E. Language and culture. – China: Shanghai, 2001; Naridati S. The meaning component of “Cleaning with water” concept in Javanese // Proceeding of the First International Conference on Communication, Language, Literature and Culture, 2020, 8-9-september.

metaforalar tadqiqini G.Le Thi⁵ olib borgan bo'lsa, *suv* tushunchasi bilan bog'liq nostartik leksemalarning semantik tuzilishi G.Telejko ishlarida, rus va polyak tillarida *suv* leksemasining o'zaro leksik-semantik bog'liqlik xususiyatlari A.Borisova⁶ning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Tsukuba universiteti professori L.Wenxen ikki xil metaforaning kelib chiqish asosiga doir tahlil berib, «*情報は食べ物である*» (Axborot ovqatdir), «*情報は水である*» (Axborot suvdir) konseptual metaforalar tadqiqini amalga oshirgan. Suv manba domeni yordamida ifodalangan bir qator axborot metaforalari asosida ochib berilgan⁷. Turk tilshunosi M.Aychichek esa ingliz, turk va rus tillarida suv referentlarining ifodalanishini frazeologik birliklar vositasida qiyosiy aspektida tadqiq etgan⁸.

O'zbek tilshunosligida A.Sobirov *suv* leksemasining semantik va grammatik xususiyatlarini tahlilga tortib, mazkur so'zning o'zbek tili leksik qatlamida faol ekanini ta'kidlasa⁹, Sh.Nizomova she'riyatda *suv* bilan bog'liq obrazlar talqini haqida fikr yuritib, suv obrazlarining hayotiy va mifologik asoslarini¹⁰, M.Mo'minova suv komponentli lisoniy birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganib, lingvostatistik tahlilini amalga oshirgan¹¹.

M.Allanazarova *suv* hamda *olov* konseptlarini lingvomadaniy sathda tahlil qiladi¹², I.Islomov *suv* bilan bog'liq geografik tushunchalarni¹³, A.Aliqulov esa *yog'in* tushunchasining¹⁴ tahlilini berib o'tadi.

O'zbek tilida *suv* so'zining o'z va ko'chma ma'nolari, she'riy matnlarda ifodalanishi, iboralar yordamida lingvomadaniy semalar hosil qilishi xususida asosli manbalar mavjud. Biroq *suv* leksemasining lingvomadaniy xususiyatlari turli tillar mumtoz adabiyoti materiallari asosida tadqiqot obykti sifatida monografik planda tadqiq qilingan ilmiy izlanishlar mavjud emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasaning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat

⁵ Masaru E. The true power of water. – New York: Beyond words pub co, 2005; Le Thi G. An investigation into conceptual metaphors of water in English and Vietnamese Poetry // International Journal of English language studies, 2023.

⁶ Тележко Г.М. О Смысловой структуре ностратической лексемы со значением “вода” //Universum: филология и искусствоведение: электрон. научн. журн., 2021; Борисова А.В. Особенности лексико-семантической корреляции единиц поля *вода / woda* в русском и польском языке // Филология и искусствоведение, 2012.

⁷ Wenxen L. “Information” as a Target Domain of Conceptual Metaphors: A Corpus-Based Approach to Metaphors and a Proposal for a Metaphor Identification Procedure. – Tsukuba university: International and advanced Japan studies, 2017.

⁸ Айчичек М. Репрезентация концепта вода фразеологической картине мира (на материале русского, турецкого и английского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2012.

⁹ Sobirov A. Some considerations about the word water and its meanings // Academicia globe: Inderscience research, 2021.

¹⁰ Nizomova Sh. She'riyatda suv bilan bog'liq obrazlar talqini. Monografiya. – Buxoro: Durdona, 2020.

¹¹ Mo'minova M. Suv komponentli lisoniy birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol.fan.b.fals.dok...diss. avtoref. – Qarshi, 2024.

¹² Allanazarova M. Verbalization of concept “water and fire” in English linguoculturology // Journal of critical reviews, 2020.

¹³ Исломов И. Ўзбек тилида релефонимлар: тизими, структураси ва маъновий муносабатлари: Филол. фан. номз....дисс. автореф. – Тошкент, 2012.

¹⁴ Аликулов А. Ел-ёгин луғавий маъновий гуруҳи (tizimi, қўлланилиши, лексикографик талқини): Филол. фан. номз....дисс. автореф. – Тошкент, 2011.

universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Semasiologiya, qiyosiy adabiyotshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek, ingliz va yapon tillarida suv tushunchalarining milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganish va ularni adabiy matnlarda semantik, lingvomadaniy tahlil jarayonida qiyosiy-chog‘ishtirish nuqtayi nazariga ko‘ra ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

jahon tilshunosligida suv bilan bog‘liq tushunchalarning tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarni o‘rganish orqali *suv* bilan bog‘liq tushunchalarning mohiyatini yoritish;

chog‘ishtirilayotgan tillarda muayyan ma’no asosida birikkan *suv* arxisemali birliklarning paradigmasini ko‘rib chiqish va ularning semalarini o‘zaro taqqoslash;

o‘zbek, ingliz va yapon mumtoz asarlarida *suv* arxisemali birliklarni to‘plash, lingvostatistik tahlilini amalga oshirish;

mumtoz matnlarda *suv* arxisemali birliklarni semantik maydonlarga ajratgan holda ma’noviy jihatdan tahlil qilish;

suv arxisemali birliklarning ijobiy, salbiy va neytral semalarini ko‘rsatishda xalq tafakkuri, idroki mezonlari, milliy-madaniy belgilarning o‘rni va ahamiyatini ochib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida o‘zbek, ingliz va yapon mumtoz adabiyoti namunalari: “Qutadg‘u bilig”, “Kenterberi hikoyalari”, “Shahzoda Genji haqida hikoyalar” asarlarida qo‘llangan *suv* arxisemali birliklar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek, ingliz va yapon tilida *suv* arxisemali birliklarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsifiy, qiyosiy-chog‘ishtirma, statistik, trinar metodlar, kontekstual-semantik, KH-coder tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va jahon tilshunosligida *suv* bilan bog‘liq tushunchalarning tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar o‘rganilib, tadqiqotlar bir yoki ikki til doirasida suv bilan bog‘liq leksemalarning etimologiyasi va maqol, matal, iboralar yordamida ifodalangan lingvomadaniy jihatlarni aks ettirishga qaratilgani aniqlangan;

o‘zbek, ingliz va yapon mumtoz adabiyotida *suv* bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi birliklar miqdori lingvostatistik jihatdan isbotlangan;

qiyoslanayotgan tillardagi mumtoz matnlarda *suv* bilan bog‘liq tushunchalarning semantik maydoni umumiy va xususiy belgilari asosida to‘rt guruhga ajratilib, ular tarkibida *tabiiy suv* havzalari semantik jihatdan katta miqdorni tashkil etishi, sun‘iy suv havzalari tabiat hodisasi va hissiyot bilan bog‘liq *suv* leksemalari esa semalari kichikroq ko‘lamga egaligi asoslangan;

mumtoz matnlarda berilgan *suv* leksemalarining neytral, ijobiy va salbiy semalari ko‘rsatilib, ularning yuzaga kelishida dinning ta’siri yuqori ekani, o‘zbek lingvomadaniyatida metaforalar orqali ochib berilgan semalar asosiy o‘rinni egallashi, ingliz lingvomadaniyatida maqollar, xristian ta’limotiga murojaatning

ko'pligi, yapon lingvomadaniyati esa sinto va buddaviylik nazariyalari orqali har uchala lingvomadaniyatda tafovutlar yuzaga kelgani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek, ingliz va yapon tilida *suv* arxisemali birliklar asosida to'plangan manbalar, qo'yilgan muammolarni tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar, *suv* arxisemali birliklar yuzasidan muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishda, *suv* tushunchalarining lingvomadaniy tahlili bo'yicha tadqiqotlar yaratishda, mavjud o'quv adabiyotlarini mukamallashtirishda, majmua, o'quv qo'llanmalar yaratishda va lug'atlar tuzishda xizmat qilishi asoslangan;

chog'ishtirilayotgan tillarda *suv* arxisemali birliklarning tarixiy shakllari keltirilib, ularning semalari lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan va ushbu sohada *suv* tushunchasining madaniy birlik sifatidagi ahamiyati yoritilgan, mumtoz namunalar asosida *suv* bilan bog'liq tushunchalarning tahlilini ko'rib chiqish bo'yicha bir qator amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi mumtoz matnlarda *suv* arxisemali birliklarni aniqlashda muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning asoslantirilganligi, mavzuni yoritishda diaxron va sinxron, qiyosiy-chog'ishtirma tadqiq usullaridan foydalanilganligi, *suv* bilan bog'liq tushunchalarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlanishida o'zbek, ingliz va yapon tillaridagi manbalar, shuningdek, statistik ma'lumotnomalarga tayanilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiya natijalari o'zbek lingvomadaniyatshunosligida *suv*ga doir tushunchalar va lingvomadaniyatshunoslik doirasida amalga oshiriladigan keyingi ilmiy ishlar uchun nazariy asos vazifasini o'taydi, keltirilgan xulosalar chog'ishtirilayotgan tillar lingvomadaniyatshunosligini nazariy jihatdan boyitishda va lug'atshunoslik, sotsiolingvistika, semasiologiya, lingvomadaniyatshunoslik sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallaridan "Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili, ingliz tili, yapon tili)", bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda "Lingvistika (o'zbek tili, ingliz tili, yapon tili)" magistratura mutaxassisliklarida tanlov fan sifatida o'qitilishida, shuningdek, olingan natija va xulosalardan chog'ishtirilayotgan tillar doirasida "Jahon adabiyoti", "Ingliz tili leksikologiyasi", "Qadimgi davr ingliz adabiyoti", "Yapon tili va adabiyoti", "Lingvokulturologik tadqiqot metodologiyasi", "Mumtoz adabiyot va lingvomadaniyatshunoslik" fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Chog'ishtirilayotgan tillardagi *suv* arxisemali birliklarning lisoniy tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mumtoz matnlarda berilgan *suv* leksemalarining neytral, ijobiy va salbiy semalari ko'rsatilib, ularning yuzaga kelishida dinning ta'siri yuqori ekani, o'zbek lingvomadaniyatida metaforalar orqali ochib berilgan semalar asosiy o'rinni egallashi, ingliz lingvomadaniyatida maqollar, xristian ta'limotiga murojaatning ko'pligi, yapon lingvomadaniyati esa sinto va buddaviylik nazariyalari orqali har uchala lingvomadaniyatda tafovutlar yuzaga kelgani dalillanganligi haqidagi

xulosalardan “Memorandum of understanding between Fergana regional administration of the Republic of Uzbekistan and Nippon academy Japan, Gunma” nomli shartnoma asosida “Farg‘ona viloyati yapon metodikasiga ixtisoslashtirilgan maktablarda yapon tili va madaniyatini o‘qitish”ga doir amaliy loyihada foydalanilgan (Farg‘ona viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasining 2024-yil 20-sentabrdagi 01-17/2771-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot materiallari fundamental loyiha doirasida tayyorlangan maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan yapon adabiyoti va tili bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlarini boyitishga xizmat qiluvchi darsliklarning ilmiy-metodik saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

qiyoslanayotgan tillardagi mumtoz matnlarda *suv* bilan bog‘liq tushunchalarning semantik maydoni umumiy va xususiy belgilari asosida to‘rt guruhga ajratilib, ular tarkibida *tabiiy suv* havzalari semantik jihatdan katta miqdorni tashkil etishi, sun‘iy suv havzalari tabiat hodisasi va hissiyot bilan bog‘liq *suv* leksemalari esa semalari kichikroq ko‘lamga egaligi asoslanganligi haqidagi xulosalardan Amerika Qo‘shma Shtatlari O‘zbekistondagi elchixonasining 2021-2023 yillarda faoliyat olib borgan “Mindonobod Satellite Access Microscholarship Program” S-UZ800-21-GR-3126 xalqaro amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Farg‘ona tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi, 62-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 2024-yil 27-dekabrdagi 149-sonli ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiya materiallaridan xalqaro loyiha doirasida nashr etilgan ilmiy maqolalar uchun manba sifatida foydalanilgan.

o‘zbek va jahon tilshunosligida *suv* bilan bog‘liq tushunchalarning tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar o‘rganilib, tadqiqotlar bir yoki ikki til doirasida suv bilan bog‘liq leksemalarning etimologiyasi va maqol, matal, iboralar yordamida ifodalangan lingvomadaniy jihatlarni aks ettirishga qaratilgani hamda o‘zbek, ingliz va yapon mumtoz adabiyotida *suv* bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi birliklar miqdori lingvostatistik jihatdan isbotlanganligi haqidagi taklif va xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DMning 2024-yil fevral va avgust oylaridagi “Jahon adabiyoti”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon” dasturlarini samarali tashkil etishda, ularning dastur va ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 29-avgustdagi 04-36-963-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur eshittirishlar ssenariylari lingvomadaniy sohaga oid ilmiy yangiliklar bilan boyitilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta respublika hamda 3 ta xalqaro anjumanda ma’ruza ko‘rinishida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish e‘lon qilingan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta, ulardan, 11 tasi respublika, 3 ta xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 154 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflanib, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Suv arxisemali birliklar tadqiqining ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobi uch faslni o'z ichiga oladi. Bobning birinchi fasli "Jahon tilshunosligida suv bilan bog'liq tushunchalar tadqiqi" deb nomlanadi.

Suv bilan bog'liq tushunchalar juda qadimdan beri ko'plab sohalarda tadqiq qilinuvchi element hisoblanib, mazkur tushuncha ingliz, yapon va rus tadqiqotlarida semantik, leksik, struktur jihatdan tahlil qilingan. Sinxron va diaxron aspektlarda konsept, lingvomadaniyatshunoslik doirasida olamning lisoniy manzarasini tasvirlovchi obyekt sifatida bayon qilingan.

Yapon olimi E.Masaru tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida *suv* o'zida mujassam etgan axborotlarga ko'ra o'z fizik xususiyatlarini o'zgartira olishi asoslab berilgan¹⁵. Inson tanasining 70 foizini suv tashkil etar ekan, unga o'zi qabul qilayotgan axborot ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin degan gipoteza asosida boshlangan tadqiqot bir qator mo'jizaviy xulosalar bilan yakun topgan. Garchi olimning ilmiy ishi ijtimoiy-gumanitar sohalarga tegishli bo'lmasa-da, suvning tabiatiga bo'lgan qiziqishning ortishiga sabab bo'lganligi bilan diqqatga sazovordir.

Suv komponentli birliklarning lingvomadaniy tahlili ikki yo'nalishda – bir til va turli tillar doirasida amalga oshirilgan. Jumladan, T.Badmayeva ingliz madaniyatidagi *water-suv* konseptini lingvomadaniy kontekstda o'rgangan¹⁶. Suv tushunchasining ingliz madaniyatida "doimiylik" semasiga egaligi, lingvomadaniy jihatdan mazkur leksemaning "o'lik" va "tirik" suv sxemasi mavjudligi ko'rsatilgan hamda polisemiya hodisasiga ko'ra 30 xil ma'nosi aniqlanib, iboralar tahlili asosida suv elementining ko'chma ma'nolari keltirib o'tilgan. A.Borisova rus va polyak tilidagi *voda/woda* so'zlarini qiyoslab, ularni birlashtirib turuvchi korrelyativ semalarni besh yirik guruhga birlashtirgan¹⁷ bo'lsa, G.Telejko dunyo tillarida keng qo'llanadigan inglizcha *water* va ruscha *voda* leksemalarini qiyosiy aspektida tadqiq

¹⁵ Masaru E. The true power of water. – New York: Beyond words pub co, 2005. – P. 98-125.

¹⁶ Бадмаева Т.И. Концепт "вода" в английской лингвокультуре: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. – С.14-18.

¹⁷ Борисова А.В. Особенности лексико-семантической корреляции единиц поля *voda / woda* в русском и польском языке // Филология и искусствоведение, 2012. – С. 166-68.

etgan¹⁸. M.Aychichek¹⁹ rus, turk va ingliz tillarida *suv* bilan bog‘liq frazeologik birliklarning struktur-semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini, E.Shemelyeva *dengiz* bilan bog‘liq 1600 ga yaqin leksik birliklarni tahlilga tortgan²⁰. S.Naridati rus va xitoy lingvomadaniyatida *suv* komponentli frazeologizmlardagi olam manzarasi bilan bog‘liq stixiyali kodlarni tahlil qilgan²¹. P.Zhibin esa *suv* metaforalarini strukturaviy diskurs doirasida tadqiq etib, u koronavirus bilan bog‘liq matnlar korpusida uchraydigan suvga oid metaforik ifodalar asosida, bunday metaforalarni turli maqsadlar uchun moslashuvchan tarzda foydalanish imkoniyati mavjud degan yangi ilmiy xulosani beradi²².

Shuningdek, S.Persuad *suv* konseptual metaforalarini tadqiq qilib, feministik qarash, metafora va mahalliy qadriyatlarga tayangan holda ish olib borgan²³. N.Silaski *suv* bilan bog‘liq metaforalarni iqtisodiy yo‘nalishlarda qo‘llanilishini J.Lakoff, M.Johnson, Z.Kovekses nazariyalari asosida tekshirgan²⁴.

Yapon tadqiqotchisi Sh.Takayanagi Sh.Endoning asarlarida *daryo* va *suv* konsepti mavzusini, G.Le Thi XIX-XX asrlarda yozilgan ikki tildagi she‘rlar asosida *suv* metaforalari tadqiqini amalga oshirgan²⁵. S.Yamamoto Giono asarlarida uchrovchi *yomg‘ir* hamda *suv* tushunchalarining ma‘nolari, yozuvchi hayotida tutgan o‘rni va yozuvchining asarlarida *yomg‘ir* hamda *suv* tushunchasi “iliqlik, yorug‘lik, baxt” semalarini ifodalash uchun xizmat qilganini aniqlagan bo‘lsa²⁶, F.Bauchamp *dengiz* obraziga batafsil to‘xtalib, “Shahzoda Genji haqida hikoyalar” va “Heike hikoyalari” deb nomlanuvchi adabiy asarlar doirasida tahlilga tortgan.

Bobning ikkinchi fasli “O‘zbek tilshunosligida suv arxisemali birliklarning o‘rganilishi” deb nomlanadi.

Suv arxisemali birliklar eng qadimgi mifologik nazariya, olamning yaratilishi bilan bog‘liq hodisalarga borib taqaladi va suv olamning muqaddas to‘rt unsuridan biri sifatida e‘zozlanadi. O‘zbek tilshunosligida ham suv bilan bog‘liq tushunchalar haqidagi tadqiqotlar o‘tgan asrning 30-yillaridan boshlab bo‘y ko‘rsata boshlagan.

X.Jabbarov *suv* so‘zining 30 ta semasini ajratib, shunga asoslangan holda leksik birliklarni tahlil qiladi²⁷. Shuningdek, o‘zbek tilida “obihayot” tarzida

¹⁸ Тележко Г.М. О Смысловой структуре ностратической лексемы со значением “вода” // Universum: филология и искусствоведение: электрон. научн. журн. 2021. 8(86). URL: <https://universum.com/ru/philology/archive/item/12191> (дата обращения: 07.06.2022).

¹⁹ Айчичек М. Репрезентация концепта вода во фразеологической картине мира (на материале русского, турецкого и английского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2012. – 26 с.

²⁰ Шмельёва Е. Лингвокультурологические особенности морской лексики в английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: 2009. – 23 с.

²¹ Naridati S. The meaning component of “Cleaning with water” concept in Javanese // Proceeding of the First International Conference on Communication, Language, Literature and Culture, 2020. – V8, 1. – P. 123-148.

²² Zhibin P. COVID-19 as water? The functions of water metaphors in the metaphorical representation of COVID-19 // Plos one, 2023. – V3,4. – P. 37-63.

²³ Persuad S. The currency of water in words: an analysis of the conceptual metaphors of water: For the Degree Doctor of Philosophy, 2022. – 271 p.

²⁴ Silaski N. The money is liquid metaphor in economic terminology – a contrastive analysis of English, Serbian and Romanian // Professional communication and translation studies, 2021. – V 1,4. – P. 63-71.

²⁵ Takayanagi Sh. River, symbol, plot and narrative in Shusaku Endo’s Deep river // Sophia university, 2024. – V 4, 11. – P. 292-304; Le Thi G. An investigation into conceptual metaphors of water in English and Vietnamese Poetry // International Journal of English language studies, 2023. – V 9,13. – P. 57-65.

²⁶ 山本省. ジオノ文学における水の役割 // シンシュ大学, 2012. – V 3,7. – P. 19-35.

²⁷ Жаббаров Х. Ўзбек тилида сув лексемасининг луғавий-маъновий хусусиятлари. Монография. – Қарши: Насаф, 2005. – 140 б.

foydalaniluvchi suv soʻzining fors-tojik tilida “ob” shaklida qoʻllanilishi va u bilan komponent hosil qiluvchi 48 ta soʻzning izohini hamda ot, sifat, feʼl yasovchi qoʻshimchalar yordamida suv leksemasi ishtirokida sodda yasama soʻzlar modellarini keltirib oʻtadi.

A.Sobirovning *suv* kombinatsiyasining fonetik va nominal xususiyatlaridan kelib chiqib, suvning fizik, anatomik, psixologik, logik, ijtimoiy, tarixiy va geografik semalarini yoritgan tadqiqoti²⁸, Sh.Nizomovanning *suv* obrazlarining hayotiy va mifologik asoslari, suvga marosimiy munosabatning sheʼriyatdagi tasviri, suv havzalari, inshootlari, tabiat hodisalari talqini hamda suv bilan bogʻliq obrazlar va aniqlovchilarning poetik mohiyati haqidagi nazariyalari oʻzbek tilshunosligida ham suvga doir turlicha yondashuvlarning mavjudligini isbotlaydi. M.Allanazarova *suv* hamda *olov* konseptlarini lingvomadaniy sathda tahlil qilib, *suv*, *olov* konseptini leksik, frazeologik, matn jihatidan tekshirgan²⁹. Ingliz tilining lingvistik qiyofasiga *suv*, *olov* tushunchalari frazeologik, matn va paremiologik jihatdan taʼsir etishi, olov va suvning yadroviy tushunchalari: a) suv va olov inson hayoti hamda hayotiylik ahamiyatiga ega; b) suv va olov xavf omili, ofat, halokat; c) suv va olov inson his-tuygʻulari (sevgi, doʻstlik, xotirjamlik, gʻazab va boshqalar) mavjudligi; olov va suvning periferik konseptual xususiyatlari: a) suv va olov insonlarga eng katta neʼmat; b) suv va olov nazorati mustahkamlanishi; c) suv va vaqt oʻrtasidagi muvozanat, shuningdek, *olov* leksemasining semalari “ilhomlantiruvchi va ragʻbatlantiruvchi omil”, “oʻtmishni qadrllovchi”, “gʻazab” ekani, *suv* esa “muqaddas va tushunarsiz sehrli kuch”, “salomatlik manbasi”, “tinchlik” semalariga egaligi isbotlangan. M.Moʻminova *suv* komponentli lisoniy birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilib, oʻzbek tilidagi *suv* komponentli lisoniy birliklarni toʻplagan va lingvostatistik tahlilini amalga oshirgan. *Suv* komponentli leksemalarni struktur-semantik jihatdan koʻrib chiqish, konnotativ xususiyatlarni, koʻchma maʼnolarda ifodalangan lingvomadaniy belgilarni aniqlash va *suv* komponentli frazemalarni tizimlashtirish, frazemalar semantikasidagi milliy-madaniy belgilarni aniqlash, xalq tafakkuri, idroki, mental ongi, baho berish mezonlarini, milliy-madaniy belgilarini koʻrsatishda *suv* komponentli maqol, matal, hikmatli soʻzlarning oʻrni va ahamiyatini ochib berish orqali ilmiy tadqiqotni amalga oshirgan³⁰.

A.Ashirov bir qator ilmiy maqolalarida maqollar hamda milliy madaniyatga oid xususiyatlar asosida *suv* tushunchasining maʼnolarini keltirib oʻtgan. Suvga, asosan, toʻrt unurning biri nuqtayi nazaridan qarab, suv bilan bogʻliq milliy qadriyat va anaʼnalarini etnografik materiallar asosida ochib bergan. Muallif tomonidan oʻzbek oilalarida bola yoshligidan boshlab suvga qadriyat sifatida qarashi va uni behuda isrof qilmaslikka oid bilimlar mavjudligi taʼkidlangan. Shuningdek, farzand

²⁸ Sobirov A. Some considerations about the word water and its meanings // *Academicia globe: Inderscience research*, 2021. – V2,5. – P.301-305.

²⁹ Allanazarova M. Verbalization of concept “water and fire” in English linguoculturology // *Journal of critical reviews*, 2020. – № 2. – B. 382-387.

³⁰ Moʻminova M. *Suv komponentli lisoniy birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol.fan.b.fals.dok...diss. avtoref.* – Qarshi, 2024. – 53 b.

tugʻilishi, nikoh va motam marosimlarida suv bilan bogʻliq urf-odatlar ilmiy asosda tahlil qilingan³¹.

Birinchi bobning uchinchi fasli “*Suv* arxisemali birliklarning leksik-semantik paradigmasi” deb nomlanadi.

Paradigma umumiy maʼnolariga koʻra birlashuvchi va xususiy semalariga koʻra farqlanuvchi tizim (OʻTIL, 3, 217-bet) boʻlib, leksik paradigma muayyan maʼno asosida birikkan lugʻaviy birliklar guruhi³²ni tashkil etadi. *Suv* arxisemali lisoniy birliklar bir necha paradigmalarga boʻlib oʻrganishni taqozo etadi.

Mazkur faslda *suv* arxisemali birliklarning quyidagi umumiy va xususiy maʼnolari tadqiq qilindi. 1. *Suv* soʻzining paradigmasi – chogʻishtirilayotgan tillarda suv soʻzining izohli lugʻatdagi taʼrifi, etimologik kelib chiqishi (oʻzbek tilida suv – su (“Devonu lugʻotit turk”); ingliz tilida “*wæter*” shaklida uchrab, eski nemis, saks va gotik tillaridagi “*wódr*”; yapon tilida esa qadimgi “*iwi(j)*” sino-tibet soʻzidan)ga asoslanib, ularning ifodalab keluvchi semalari berilgan. Struktur tuzilishiga koʻra qoʻshma soʻzlar: oʻzbek tilida *suvilon*, *suvchechak*; ingliz tilida: *waterway* (suv yoʻli), *waterspout* (suv uyurmasi), *watertight* (suv oʻtkazmaydigan), *waterwheel* (suv charxpalagi), *waterwork* (suv mexanizmi), *waterskiing* (suv changʻisi), *waterage* (suv taʼminoti), *waterman* (suvchi), *waterbird* (suv qushi), *waterborne* (suv bilan tarqaladigan), *waterbuck* (suv antilopasi), *waterbus* (suv transporti) kabi jami 52ta qoʻshma soʻz mavjud; yapon tilida: 水罎 (ingichka yirtqich suv hasharoti), 水鷄 (suv botqoq qushi), 水母 (meduza), 水压 (suv bosimi),

水位 (suv sathi darajasi), 水運 (suv transporti), 水泳 (suzish), 水溫 (suv bosimi) kabi 150 dan ortiq qoʻshma soʻz borligi aniqlandi. Leksik-semantik xususiyatiga koʻra, oʻzbek tilida “obihayot, maza-taʼm” koʻchma maʼnolari, ingliz tilida “gʻayrat suvi”, “poklovchi” maʼnolari, yapon tilida esa “qalb va ruh taʼminotchisi”, “tizza suvi”, “suv tanaffusi” kabi semalarga egaligi koʻrsatilgan. Shuningdek, oʻzbek, ingliz va yapon tillarida bir qator iboralar mavjud boʻlib, ular suvga nisbatan qiyoslanayotgan madaniyatlarning oʻxshash va farqli tomonlarini ochib beradi. Masalan, oʻzbek tilida “tinch” (*suv quygandek jimjit*), “natijani koʻrmoq” (*gʻalvirni suvdan koʻtarmoq*), “qarama-qarshi” (*oʻt bilan suvdek*), “uddaburon” (*suvga tushsa, quruq chiqadigan*), “behudaga ketkazmoq” (*suvga oqizmoq*) kabi maʼnolarda ham qoʻllanishi koʻp uchrasa, ingliz tilida “judayam zerikarli” (*as dull as dishwater*), “qiyinchilik” (*come hell or high water*), “harakatlana olmaslik” (*dead in the water*), “uddaburon” (*like a duck to water – able to pick something up very quickly and easily*), “mazali” (*mouth-watering*), “sinab koʻrmoq” (*to dip your toe in the water*), “xavfga yuz tutmoq” (*to go through fire and water*), “qarzdan, muammodan bosh koʻtarmoq” (*to keep your head above the water*), “murakkab vaziyat” (*to muddy the waters*), “salbiy fikrda boʻlmoq” (*to pour cold water on something*), “qovoqxona” (*watering hole*) kabi iboralar tarkibida kelib yangi semalar ifodalashi; yapon tilida esa “xarakteri mos emas” (水が合わない), “qarama-

³¹ Ashirov A. Oʻzbek oilasida suv bilan bogʻliq madaniyat va milliy tarbiya // Journal of Mamun in science, 2024. – № 2,1. – B. 56-62.

³² Qosimova F. Oʻzbek-ingliz tibbiy terminlari va ularning lingvokulturologik tadqiqi. Monografiya. – Fargʻona, 2023. – B.28.

qarshi” (水と油), “yo‘q bo‘lmoq” (水となる), “behudaga ketkazmoq” (水にする 水に流す) semalarining tez-tez qo‘llanishi izohlangan. 2. *Daryo, dengiz, ko‘l, okean, buloq* kabi suv havzalarining paradigmasi o‘rganilib, *daryo, river* va 川 leksemalarining “katta oquvchi suv havzasi” semasi qiyoslanayotgan uch til uchun umumiy, “ko‘p” semasi ingliz va o‘zbek tili uchun umumiy, “sayohat qiluvchi” va “hayot oqimi” semalari esa chog‘ishtirilayotgan tillar uchun differensialdir. *Ko‘l* so‘zi suv havzasi ma’nosidan tashqari “sokin, tinch” ma’nosiga ega. *Buloq* leksemasi o‘zbek tilida “boy manba”, “ta’timaslik” va “qattiq yig‘lamoq” ma’nolarida keng foydalaniladi. 3. *Yomg‘ir, muz, qor, shabnam* leksemalari ob-havo hodisasi, diniy-mifologik va rang, belgi-xususiyat semalariga ko‘ra o‘rganilib, ob-havo hodisasi sifatida berilgan ta’riflarda chog‘ishtirilayotgan tillarda *shabnam* leksemasida differensiallik mavjud. *Yomg‘ir* diniy-mifologik semalarda keng qo‘llanilib, rang, belgi-xususiyat semalariga ko‘ra esa *muz* va *qorning* xususiy semalari bor, masalan: o‘zbek tilida muzning sovuqlik xususiyatidan kelib chiqib “*muzyurak*”, yapon tilida esa shaffofligi asosida 氷心 (muz kabi toza qalb) · 氷清 (muz kabi shaffof ruh) kabi ifodalar ishlatiladi. 4. *Ko‘zyosh* va *may* leksemasining paradigmasi bo‘lib, har uchala til uchun xos bo‘lgan umumiy semalar aniqlandi.

Ishning ikkinchi bobi “**O‘zbek, ingliz va yapon tillari mumtoz matnlarida suv arxisemali birliklarning semantik xususiyatlari**” deb nomlanib, uch fasldan tarkib topgan. Birinchi faslda “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llanilgan *suv* bilan bog‘liq tushunchalarining semantik xususiyatlari ochib berilgan.

Avvalo, statistik tahlil usuli orqali “Qutadg‘u bilig” asarida suv arxisemali birliklarning qo‘llanish chastototasi aniqlangan. Unga ko‘ra, *suv* – 43, *may* – 16, *dengiz* – 16, *daryo* – 6, *ko‘z yosh* – 6, *yomg‘ir* – 3, *qor* – 2, *quduq* – 1, *muz* – 1 marotaba foydalanilgani va *shabnam, ko‘l* so‘zlarining asarda uchramasligi ma’lum bo‘ldi. Yuqorida nomlari sanab o‘tilgan har bir tushunchaning “Qutadg‘u bilig” asarida ifodalab kelgan ma’nolari va ularning mazkur til sohiblari madaniyati bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinib, *suv* arxisemali birliklar to‘rt semantik maydonda ko‘rib chiqildi:

1. Tabiiy suv havzalari semantik maydoni.
2. Sun‘iy suv havzalari semantik maydoni.
3. Tabiat hodisasini ifodalovchi suv tushunchalari semantik maydoni.
4. Hissiyot bilan bog‘liq suv tushunchalari semantik maydoni.

Tabiiy suv havzalari semantik maydonida *suv* – a) “poklik” – *Tishi birlä suhbat edi käd tatiğ, Soğuşq suvqa yunmaq yanuti qatiğ*; b) “tiriklik” – *Tiriglig bölür suv sen aymış teg ög, Yärim içsä, qalsa yärimi uluğ*; c) “ta’minotchi” (*Yer – ona, suv – ota*) – *Qayu bağqa tegsä suvü eksämädän, Čečäk yazlur anda, tümän tu yudın* kabi semalari mavjudligi aniqlangani, mazkur semantik maydonga kiruvchi *dengiz* so‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida yangi-yangi obrazlar sifatida gavdalantirilganini ko‘rish mumkin: *Ölüm bir teniz-ul uči yoq tubi, Baqa körsä, yetrü tubi yoq batuğ* (QB, 221-bet)) – o‘lim bir dengiz, tubi yo‘q chuqurdir yoki *Oğul-qiz saqinči – bu tubsiz teniz, Oğul qiz sariğ qildi, qirğu meniz* (*O‘g‘il-qiz g‘ami bu tubsiz dengizdir, Qizil yuzni o‘g‘il qiz sarg‘aytiradi* (QB, 225-bet)) – farzandlar tashvishi tubsiz dengiz kabilar shular jumlasidandir. O‘zbek xalqining “ota-ona uchun farzand qarisa ham bola” maqolida aytilgani kabi, farzand g‘ami ota-ona uchun tunganmas bo‘lib,

dengiz oxiri ko‘rinmasligi va tubi yo‘qligi jihatidan metoforik ma’no ko‘chirilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Shuningdek, *daryo* leksemasining “bilim”, “ko‘p”, “bitmas xazina” semalari asardagi misollar orqali tahlil qilindi.

Sun‘iy suv havzalari semantik maydonida *quduq* leksemasi ko‘rib chiqilganda, uning qorong‘ulik xususiyatidan “dunyo” semasi yuzaga kelgani asoslandi.

Tabiiy suv havzalari semantik maydoniga *yomg‘ir, qor, muz, shabnam* kabi suv bilan bog‘liq tushunchalarni kiritish mumkin bo‘lsa-da, “Qutadg‘u bilig”da faqat *yomg‘ir* leksemasi semantik tahlilga tortildi: (*Yağa tursu yağmur, yazılsu çeçäk, Qurumış yağaçdan salınsu keräk. (Yomg‘ir yog‘aversin, gullar ochilsin, Qurigan daraxtdan yaproqlar chiqsin. (QB,79-bet))*) jumlasini “Muzaffar, muhtaram, madadkor, haqiqat va din tayanchi Tavg‘och ulug‘ Bug‘ro Qoraxon abo Ali Hasan binni Arslonxon rahmatullohi alayhim sha’niga” bobida berilgan bo‘lib, bu qismni podshohni ulug‘lab yozilgan baytlar tashkil qiladi. Tavg‘ach Bug‘roxonga hamd yozar ekan, uni tabiat, fasllar, o‘simlik va samo jismlari bilan tasvirlaydi. O‘zini din va diyonatda boxabar kishi sifatida yozib, berilgan davlatdan to‘g‘ri foydalanish haqida nasihatlar beradi va ayni shu qismda yuqoridagi “yomg‘ir yog‘ib, gullar ochilsin” mazmunidagi jumla keltiriladi. Yomg‘ir – bahor elchisi, tabiat hodisasi sifatida tasvirlangan deyish uchun keyingi jumla “qurigan, yalang‘och daraxtlar yaproq chiqarsin” asos bo‘lsa-da, ammo matn mazmunidan kelib chiqib, podshoh – “bahor yomg‘iri”, “yashnatuvchi”, “elni adolati, saxiyligi bilan ko‘kartiruvchi” ekaniga ishorani anglash qiyin emas, daraxtlar esa “xalq bo‘lib gullab yashnashi” va bunday kunlarning ko‘p bo‘lishi uchun ulug‘ xonga uzoq umr tilash lozimligi aytiladi.

Hissiyotni ifodalovchi suv tushunchalari semantik maydonida *ko‘zyosh* leksemasi o‘rganilib, “küzün yaş”, “közdä yaş” va “köz yalum” kabi birikmalar shaklida uchrashi va semantik jihatdan o‘z ma’nosida “qayg‘u, tashvishlarda ko‘zdan oquvchi yosh” hamda bir o‘rinda “osmon ko‘zyoshi – yomg‘ir” semasini ifodalab kelishi izohlandi.

May so‘zi 14 o‘rinda o‘z ma’nosida kelib, barqa (*Yavaliq bilä barqa boş suqmasa, Yavaliğqa başlaq nenin saçmasa*) QB, 161-bet”, “o‘gu (*Buşar sötdä beğlär bolu ot oğu*) QB, 171-bet”, “Bor (*Bor içmäs keräk beg fasäd qılmasa, Bu ikki qılıqdın qut qaçar basa*) QB, 351-bet”, “süçigkä (*Süçigkä süçinsä ajun beğläri*) QB, 351-bet”, “bub (*Yağı ul bub ār içmi altun kumuş*) QB, 351-bet”, “esürsä kişi (*Esürsä kişi telvä mundus bolur*) QB, 351-bet”, “süçig (*Süçig içmä, başlağ yuvıma yava*) QB, 613-bet” kabi tarixiy shakllar orqali ifodalangan. Qolgan ikki o‘rinda “mol-dunyoga hirs qo‘yish” – “*Esürsä qalı borçı bornı içib, odup qopsa, adlur, usında keçib, Bu davlat esürtsä, adın adnumas, Olum tutmağunça, udur udnumas*”, “*Esürtmäsi davlat seni ey qadaş, Aduldiqta, şaksiz, közün tolğa yaş*”(QB, 897-99-betlar) ko‘chma ma’nosida ishlatilgan.

Ikkinchi bobning 2-faslida “Kenterberi hikoyalari”da berilgan *suv* bilan bog‘liq tushunchalarning semantik xususiyatlari, birinchi faslda keltirilgani kabi, to‘rt semantik maydon doirasida tahlil qilindi. Unga ko‘ra, *suv* tushunchasi to‘qqiz

o‘rinda o‘z ma‘nosida qo‘llangani misollar va ular ishora qilayotgan birliklar orqali ochib berildi. Qolgan o‘rinlarda:

suv – tabiatning muqaddas to‘rt unsuridan biri (*A man’s body was conceived as being composed of the four elements, earth, water, air, and fire in due proportions – Bir odamning tanasi yer, suv, havo, olov – to‘rt element to‘g‘ri proporsiyasining birlashuvidan yaratilgan*), ya‘ni suvning o‘z ma‘nosidan tashqari, insoniyat yaratilishi bilan bog‘liq va tabiat to‘rt unsurining biri ekaniga ishora ketadi;

suv – baptism vositasi (*The abbot and his convent then drew near to hasten on his burial and spread a rain of holy water on his head – Abbot va uning yordamchisi dafn marosimiga shoshildi va uning boshidan muqaddas suv yomg‘irini yog‘irdi*), suvning muqaddasligi va insonni gunohlardan poklovchi birlik ekani tasvirlanadi. Suvning fizik tozalovchilik xususiyatini ilohiylashtirish orqali ma‘no ko‘chirilgan;

suv – davolovchi. Bu o‘rinda hayvonlarda mavjud ayrim teri toshma kasalliklari, va har qanday boshqa og‘riq beruvchi kasalliklar maxsus joydagi suvdan ichilganda shifo bo‘lishi ta‘kidlanadi. Bu esa ikki narsani ko‘rsatadi – tabiiy holatda mavjud, ayrim suv havzalari davolash xususiyatiga ega hamda suv – tabiiy shifokordir.

Asarda ko‘p murojaat qilingan *dengiz* tushunchasi esa quyidagicha semalarni izohlab kelgani aniqlandi:

dengiz – geografik nom, atoqli va narsa nomi sifatida (*Grecian sea*). Ko‘plab o‘rinlarda qo‘llanilgan sharq dengizlari nomlari asarda ko‘chma ma‘noga ega bo‘lmasa-da, diniy ta‘limot “Yunus alayhissalom va kit” hodisasiga ishora mavjudligini ayrim tadqiqotchilar aytib o‘tishgan;

dengiz – “buzg‘unchilik”, “yaratuvchi”, “ochiq kema”, “koinotning chiroyli yuzi” va “abadiylik”³³ kabi an‘anaviy ma‘nolarni ifodalab kelgan. Biroq ayrim hollarda *chuqur* va *yutib yubormoq* so‘zlari bilan yonma-yon qo‘llanib, qarama-qarshi obraz sifatida tasvirlanadi: avvalo – jang-maydoni va, ikkinchi tomondan, – to‘shakdagi o‘lim manzarasi bilan uyg‘unlashadi. Bu zidlik asosida hosil qilingan metafora orqali *dengiz* ham sharafli ham sharafsiz “ulkan mozor” sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birga u jang maydoni kabi “o‘lim, buzg‘unchilik makoni” ekani ta‘kidlanadi;

dengiz – xususiy, muallif ijodiy yaratig‘i semalari. *long, cold sighs, land and sea, spotless, safe and sound* kabi so‘zlar bilan biriktirish orqali muallif *dengiz* tushunchasiga *dengiz* – “hissiy oqimlar makoni”, “Yuliy Sezar” va “ilohiy himoyachi” kabi semalarni yoritgani isbotlangan. Shuningdek, “yomg‘ir”, “okean”, “vino”, “daryo” tushunchalarining ham lingvomadaniy xususiyatlari semantik tahlillar orqali ochib berilgan.

Ingliz madaniyatida *ko‘zyosh* tushunchasi “ikkinchi baptism” semasiga ega bo‘lib, “Kenterberi hikoyalari”da 39 marta uchraydi va ushbu tushuncha 19 o‘rinda o‘z ma‘nosida qo‘llangan. Qolaversa, *ko‘zyosh* tushunchasining bir qator vazifa semalari ham aniqlandiki, bunda aynan ushbu tushunchaning o‘zi emas, balki ma‘lum bir so‘zlar birikuvi orqali ko‘chma ma‘nolar yasalishiga xizmat qilingani ko‘rsatildi.

³³ <https://poets.org/poem/sea-history> (murojaat sanasi: 20.11.2023).

ko‘zyosh – og‘riq okeani. Asarda “ko‘p”, “motam”, “qayg‘u” kabi tushunchalar bilan birikma hosil qilgan *ko‘zyosh* leksemasi, Bibliya matnlarida butun boshli g‘amli kunlarni ifodalovchi ramz sifatida talqin qilinadi. Ushbu obraz orqali qalbdagi chuqur iztirob tananing boshqa bir qismi – ko‘z vositasida tashqi ifodaga chiqadi, ya‘ni semantik ko‘chish sodir bo‘lgan.

